

Tanosil yoki OIV kasalligi/OITS kasalligini tarqatganlik jinoyati uchun javobgarlik masalasi

Abduraxmonova Zuxra Faxriddin qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Yurisprudensiya-biznes huquqi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Akbarov Rasuljon Azizjon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Yurisprudensiya-biznes huquqi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tanosil yoki odamning orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS)ni tarqatish jinoyati uchun javobgarlik haqida ma'lumot beriladi. Xususan, jinoiy javobgarlikning asosi haqida, javobgarlik belgilanishining ijtimoiy stigma: insonlarni jamiyatdan yakkalab qo'yilishiga ta'siri hamda qanday jazo turi qo'llash adolatli ekanligi, shuningdek, fuqorolarning sog'lig'ini muhofaza qilish va kasallik bilan yashayotgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: OITS, tanosil, jinoyat, sanksiya, huquqiy muommolar, javobgarlik, stigma, hamkorlik, profilaktika.

Kirish

Zamonviy jamiyatda inson hayoti va sog'lig'i davlat tomonidan muhofaza etiladigan asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, OIV kasalligi/OITS kabi global miqyosdagi yuqumli kasalliklar haligacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ushbu kasalliklarni oldini olish va insoniyat sog'lig'ini muhofaza qilish maqsadida ko'plab davlatlarda ushbu kasallikni tarqatganlik uchun maxsus belgilangan norma yoki umumiy yuqumli kasalliklarga bag'ishlangan norma asosida javobgarlik belgilangan. Jumladan AQSHning 50 shtatidan 37 tasida, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi 13 davlatida, Lotin Amerikasining 11 davlatida, Yevropaning 9 mamlakatida yuqumli kasallik sifatida OITS tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan qonun yoki sud

pretsedentlari mavjud. OITS bilan bo'g'liq jinoiy qilmish sodir etganlikda ayblanib sudlanganlar orasida eng ko'p son esa Shimoliy Amerikada qayd etilgan¹.

Asosiy qism

Tanosil yoki OIV/OITS kasalligini tarqatish bilan bog'liq jinoyatlar jinoyat huquqida murakkab tarkibli jinoyatlar sirasiga kiradi. Ushbu jinoyat bevosita jamiyat sanitar-epedemiologik osoyishtaligiga ta'sir etganligi bois ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 113-moddasida bila turib boshqa shaxsni tanosil yoki OIV/OITS kasalligini tarqatish jinoyati ijtimoiy xavli qilmish deb topilib, uning 5 qismida ham qilmishga mutanosib ravishda belgilangan sanksiya mavjud bo'lib quyida ularni tahlil qilamiz.

113-modda 1-qismi bu shaxsing bila turib boshqa shaxsni tanosil yuqish xavfi ostida qoldirish jinoyati bo'lib, mazkur jinoyat uchun nisbatan yengil sanksiya: bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari belgilangan bo'lib, mazkur jinoyat ijtimoiy xafi katta bo'lmagan jinoyat hisoblanadi.

2-qismida esa tanosil kasalligini yuqtirish jinoyati keltirilgan bo'lib, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Mazkur jinoyat ham ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat hisoblanadi. 1-,2-qismlarning yana bir muhim jihati mazkur jinoyatni sodir etgan shaxs Jinoyat kodeksi 66¹-moddasiga muvofiq jabrlanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishidir.

3- qismda belgilangan qilmish esa ijtimoiy xavlliligiga ko'ra uncha og'ir bo'lmagan jinoyat hisoblanib, uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Javobgarlik yuqoridagi ikki qismdagi harakatdan biri, ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan, shuningdek voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilganda qo'llanilishi lozim.

4-qismida bila turib, boshqa shaxsni OIV kasalligi/OITS yuqtirish xavfi ostida qoldirish yoki unga OIV kasalligi/OITS yuqtirish jinoyati keltirilgan bo'lib, ijtimoiy xavfliligiga ko'ra og'ir jinoyat hisoblanadi. Ushbu qism sanksiyasida besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish belgilangan.

¹ <https://www.hivlawandpolicy.org/sites/default/files/GlobalCommissionHIVCriminalisation.pdf>

5-qismda shaxsning kasb yuzasidan kasallikni jabrlanuvchiga yuqtirish qilmishini sodir etganida ifodalanib, qilmishning ehtiyotsizlik tufayli sodir etilishi mumkinligi sababli sanksiya ham unchalik og‘ir bo‘lmagan jinoyat darajasida: bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi Qarorining tushuntirishlariga ko‘ra sudlardan ikki asosiy vazifa: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, shuningdek uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan va jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatilishi mumkin bo‘lgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlash uchun qonunda mavjud barcha imkoniyatlardan to‘liq foydalanishlari va takroran va retsidiv jinoyat sodir etilishi qonunda belgilangan asoslar va doirada og‘irroq jazo tayinlanishiga olib kelishini inobatga olib, har bir ish bo‘yicha JK 77—80-moddalariga muvofiq tugallangan yoki olib tashlangan sudlanganlik holati mavjudligi haqidagi materiallar tekshirib chiqilishi va shunga asoslanib, retsidiv jinoyat bor-yo‘qligi to‘g‘risidagi masala hal etish² talab etiladi.

O‘tkazilgan empirik tadqiqot- 2025 yil iyunidan 2026-yil martiga qadar ko‘rilgan sud hukmning tahliliga ko‘ra, jinoyat sudlarida ko‘rilgan tanosil yoki OIV/OITS kasalligini tarqatish jinoyatlarida aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda aybdorning aybiga iqrор hamda qilmishidan pushaymonligiligi, muqaddam sudlanmaganligi, moddiy va oilaviy ahvoli, aybdorning shaxsi hamda uni jamiyatdan ajratmagan holda ahloqan tuzatish mumkin yoki mumkin emasligi kabi jazoni yengillashtiruvchi har bir holat deyarli e‘tiborga olinganligini o‘rgandik. Jumladan, № 1-1902-2601/26, 1-1413-2602/00-sonli jinoyat ishlarida 113-modda 4-qismi bilan aybli deb topilgan shaxslar Jinoyat kodeksi 57-moddasini qo‘llab ozodlikni cheklash bilan jazolangan bo‘lsa, 1-15-2507/239-sonli jinoyat ishida aybni yengillashtiruvchi bir qator holatlar mavjud deb hisoblanib Jinoyat kodeksi 72-moddasi qo‘llanib, aybdorga nisbatan sinov muddati tayinlangan.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga muvofiq tanosil yoki OIV/OITS tarqatish jinoyati bilan javobgarlikka tortish uchun shaxs kasalligi haqida

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi Qarori. 9-band.

xabardor bo'lishi va uni yuqtirishi mumkinligini anglagan bo'lishi kerak. Shaxs kasalligi haqida xabardorligi esa uning ro'yxatga olinib, javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilganligi hisoblanadi. Ushbu qoida insonlarda yashirish orqali xavfsizlik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Chunki ular kasalliklari haqida xabardor emasliklari jinoiy jazodan ozod qiladi deb fikr yuritadilar. Shu sababli xorijiy tadqiqotchilardan biri Scott Burris OITS kriminalizatsiyasiga tanqidiy yondashadi. Uning fikriga ko'ra jinoiy javobgarlikni qattiyashtirish profilaktika ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha jazolashdan ko'ra profilaktika va ijtimoiy qo'llab quvvatlash samaraliroq bo'lishini ta'kidlaydi³.

Boshqa kriminiolog olimlar esa javobgarlik yagona nazorat imkoniyati deb hisoblashadi. Jumladan, Metyu Veyt o'z asarida javobgarlikni saqlab qolishni zarur deb hisoblaydi. Shunday bo'lsada u asosan Angliya sud amaliyotiga tayangani bois, sud amaliyotidagi ba'zi holatlarni ham o'z navbatida tanqid qiladi. Uning fikricha, OITS yuqtirishni "og'ir tan jarohati yetkazish" (grievous bodily harm) sifatida tasniflash huquqiy jihatdan adolatsizdek ko'rinadi. Masalan, OITS bilan kasallangan shaxs hujum qilganda uning kasallanganligi garchi keyinchalik jabrlanuvchida kasallik aniqlanmasada jinoyat quroli sifatida ko'riladi. Veyt esa bunga adolatsizlik sifatida qaraydi. Uning fikricha, o'ta kam uchraydigan ataylab zarar yetkazish holatlaridagina jinoiy javobgarlik qo'llanilishi kerak⁴.

Bizning fikrimizga ko'ra esa javobgarlik saqlanib qolishi va jinoyatni aniqlash jarayonidagi protsesual harakatlar qattiq nazorat qilishnishi zarur. Har bir inson tabiatiga hos bo'lgan xislat -javobgarlikdan qo'rqish profilaktikani bir qismi sifatida qaralishi bizningcha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa

Tanosil yoki OIV kasalligi/OITS tarqatish jinoyati jamiyat hayotiga tahdid soluvchi, oqibatlari esa qaytarilmas bo'lgan ijtimoiy-huquqiy muommolardan biridir. Shu sababli ham jazo siyosati asosi oldini olish va profilaktikaga xizmat qilishi lozim.

³ Burris S. et al. – "The Criminalization of HIV Transmission", Journal of Law, Medicine & Ethics.

⁴ Weait M. -The Criminalisation of HIV Transmission, Routledge.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-son Qonuni bilan qabul qilingan. "[Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsesual kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi Qarori. 9-band
5. Burris S. et al. – “The Criminalization of HIV Transmission”, Journal of Law, Medicine & Ethics.
6. Weait M. -The Criminalisation of HIV Transmission, Routledge.
7. <https://www.hivlawandpolicy.org/sites/default/files/GlobalCommissionHIVCriminalisation.pdf>
8. <https://my.sud.uz/>